ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 9

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 8

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

UDK: 614.8

NAMANGAN VILOYATI AHOLISINI TABIIY TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLARGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Mo‘minjonov Nozimjon Nematjon o‘g‘li
Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktaranti
E-mail: mominjonovnozimjon94@gmail.com
Tel: +998 99 972 07 17

Annotatsiya. Mazkur maqolada tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar (zilzila, sel, suv toshqini, ko‘chki, qurg‘oqchilik va boshqalar) sharoitida aholini to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatishning zamonaviy usullari tahlil qilinadi. Aholining xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, profilaktik ta’limni kuchaytirish hamda innovatsion yondashuvlar asosida samarali o‘quv mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: favqulodda vaziyatlar, aholi xavfsizligi, tabiiy ofatlar, tayyorgarlik, riskni kamaytirish, ta’lim texnologiyalari.

Аннотация. В данной статье анализируются современные методы обучения населения правильному поведению в чрезвычайных ситуациях природного характера (землетрясения, оползни, наводнения, засухи и др.). Разработаны предложения по формированию культуры безопасности среди населения, усилению профилактического образования и внедрению эффективных механизмов обучения на основе инновационных подходов.

Ключевые слова: чрезвычайные ситуации, общественная безопасность, стихийные бедствия, готовность, снижение рисков, образовательные технологии.

Abstract. This article analyzes modern methods of teaching the population to behave correctly in natural emergencies (earthquakes, mudslides, floods, landslides, droughts, etc.). Proposals are developed to form a safety culture among the population, strengthen preventive education, and introduce effective training mechanisms based on innovative approaches.

Keywords: emergencies, public safety, natural disasters, preparedness, risk reduction, educational technologies.

KIRISH.

Hozirgi davrda iqlim o‘zgarishi jadallashuvi hamda insonlarning atrof-muhitga salbiy ta’siri, tabiiy resurslardan intensiv foydalanish natijasida tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar (zilzila, sel, suv toshqini, ko‘chki, qurg‘oqchilik va boshqalar)ning yuzaga kelish chastotasi va ko‘lami ortib bormoqda. Ushbu jarayonlar inson hayoti, sog‘lig‘i, iqtisodiy infratuzilma va ekologik barqarorlikka

ISSN 3030-3907

jiddiy tahdid solmoqda. Shu sababli aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash, ularning to‘g‘ri va tezkor harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tabiiy ofatlar oqibatlarini kamaytirishda asosiy omillardan biri — bu inson omili, ya’ni aholining tayyorgarlik darajasi, xabardorligi va amaliy ko‘nikmalaridir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, favqulodda vaziyatlar vaqtida aholining to‘g‘ri harakat qilishi inson talafotlarini bir necha barobarga kamaytirishi mumkin. Aksincha, bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi vahima, noto‘g‘ri qarorlar qabul qilish va evakuatsiya jarayonidagi tartibsizliklarga olib keladi. Shu bois aholini tizimli, uzluksiz va hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘qitish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda [1].

Favqulodda vaziyat ma'lum hududda yuz bergan falokat, halokat va boshqa turdagi ofatlar natijasida kishilarning o'lirniga, salomatligiga, tevarak- atrofdagi tabiiy muhitga sezilarli moddiy zarar yetkazuvchi, odamlarning turmush sharoitini buzilishiga olib keladigan holatdir[2]. Favqulodda vaziyatlar tasnifiga ko'ra (sababi va kelib chiqish manbalariga ko'ra):

1. Tabiiy tusdagi FV;
2. Texnogen tusdagi FV:
3. Ekologik tusdagi FV larga bo'linadi.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarga 3 xil turdagi xavf1i hodisalar kiradi:

1) geologik xavfli vaziyatlar: ziIziialar, yer ko'chishlari, tog' o'pirilishlar va boshqa xavfli geologik hodisalar:

2) gidrometeorologik xavfli vaziyatlar: suv toshqinlari, sellar, qor ko'chkilan, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometetologik hodisalar;

3) Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar: alohida xavf1i infeksiyalar (o'lat vabo, sarg'ayma, isitma), yuqumli kasalliklar, rikketsiyalarepidemik toshmali terlama, bril kasalligi, zoonoz infeksiyalar - Sibir yarasi, quturish, virusli infeksiyalar – SPID va boshqalar.

Mazkur masala O‘zbekiston sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamizning ko‘plab hududlari, xususan, Namangan viloyati tabiiy-geografik jihatdan xavfli zonalar qatoriga kiradi[3]. Ushbu viloyat Farg‘ona vodiysining eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri bo‘lib, uning relyefi tog‘ va tog‘oldi hududlaridan iborat. Bu esa hududda sel, ko‘chki, yer ko‘chishi va zilzila kabi tabiiy ofatlar yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, bahor va yoz mavsumlarida yog‘ingarchilikning ko‘payishi natijasida sel hodisalari tez-tez kuzatiladi va bu aholi yashash joylari hamda infratuzilmaga sezilarli zarar yetkazadi[4].

ISSN 3030-3907

Shuningdek, Namangan viloyatida aholi zichligining yuqoriligi, urbanizatsiya darajasining oshib borayotgani, ayrim hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini murakkablashtiruvchi omillar hisoblanadi. Bunday sharoitda aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tizimi nafaqat umumiy bilim berish, balki aniq hududiy xavf-xatarlarni inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim[5].

Hozirgi kunda mavjud tayyorgarlik tizimi asosan umumiy tavsiyalar va nazariy bilimlarga asoslangan bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsiyalar va interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bundan tashqari, aholini o‘qitishda yosh, ijtimoiy holat va kasbiy xususiyatlar yetarlicha hisobga olinmaydi. Natijada favqulodda vaziyatlarda aholining real harakatlari kutilgan darajada samarali bo‘lmayapti[6].

Zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi aholini tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, mobil ilovalar, onlayn ta’lim platformalari, virtual simulyatsiyalar va raqamli ogohlantirish tizimlari orqali aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirish mumkin. Biroq ushbu texnologiyalarni hududiy sharoitga moslashtirish va ularni tizimli ravishda joriy etish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Namangan viloyati aholisini tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish muammosi kompleks ilmiy yondashuvni talab etadi. Tadqiqot doirasida hududning tabiiy xavf omillari chuqur tahlil qilinadi, mavjud tayyorgarlik tizimining samaradorligi baholanadi hamda aholini o‘qitishning innovatsion, hududiylashtirilgan modeli ishlab chiqiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — Namangan viloyati sharoitida aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy asoslangan yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- hududiy tabiiy xavf-xatarlarni aniqlash va tizimlashtirish;
- aholini tayyorlashning mavjud holatini tahlil qilish;
- samarali o‘qitish metodlari va vositalarini aniqlash;
- innovatsion va differensial yondashuvlarga asoslangan model ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari hududiy darajada favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish, aholi xavfsizligini ta’minlash va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar

ISSN 3030-3907

respublikaning boshqa hududlarida ham qo‘llanishi mumkin bo‘lgan universal ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu diagrammada Namangan viloyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tabiiy tusdagi favqilodda vaziyatlar haqida malumotlar keltrilgan.




Diagramma Namangan viloyati hududida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tabiiy ofatlar ulushi va turlarini ko‘rsatadi.

Eng katta ulushni sel hodisalari egallagan bo‘lib, ular 30% ni tashkil etadi. Bu viloyatda tog‘li va yomg‘ir ko‘p yog‘adigan hududlar mavjudligi bilan izohlanadi. Keyingi o‘rinda zilzila xavfi va boshqa turdagi ofatlar (qurg‘oqchilik, kuchli shamollar va boshqalar) turadi, ularning har biri 25% dan ulushga ega. Ko‘chki va yer siljishi hodisalari 20% ni tashkil etib, asosan tog‘ yonbag‘irlarida uchrashi mumkin. Eng kam ulush esa suv toshqinlariga tegishli bo‘lib, ular 15% ni tashkil qiladi. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, hududda eng asosiy xavf sel hodisalari bo‘lsa, qolgan ofatlar ham muhim darajada xavf tug‘diradi va ularni oldini olish choralarini ko‘rish zarur.

Favqulodda vaziyatlarda fuqarolami himoya qilislming omillarida alohida o'rin tutadigan uslub - bu fuqarolami o‘z vaqtida ogohlantirish hisoblanadi. Ogohlantirish radio, televideniya vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda fuqarolami ogohlantirishdan oldin sirena, ishlab chiqarish gudogi, transport vositalarining signallari va boshqa belgilar orqali ogoh etiladi. Ya'ni bu belgilar «DIQQAT HAMMAGA» degan ma'noni anglatadi. Shu belgilami eshitgan har bir fuqaro radio, televizorlami qo'yishlari zarur. Har bir ofat yuz berganda, ularni fuqarolarga hamda iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'sir xususiyatlarini hisobga oigan holda ogohlantirish matnlari tuziladi. Masalan: a) Atom elektr stansiyasida yuz

ISSN 3030-3907

bergan avariya haqida fuqarolar muhofazasi quyidagi tartibda xalqni ogoh qiladi: «DIQQAT», Fuqaro Muhofazasi shtabidan gapiramiz, Fuqarolar! Atom elektr stansiyasida avariya sodir bo'ldi. Shu AES atrofida joylashgan «UzBAT» korxonasi, Harnza aloqa uzatish tarmog'i, Toshkent mineral suv quyish zavodi va uy-joylar, mahalialarga radioaktiv changlarning tushishi kutilmoqda. Shu hududda yashovchi hamma fuqarolar o'zlarining, yashovchi uylari germetikligini (zichligini) mustahkamlashlari, uy hayvoniarini pana joyga kiritishlari, oziq-ovqat mahsulotlarini suvlami radioaktiv chang tushishidan saqlashlari, o'zlari esa yodli preparatdan qabul qilishlari kerak. Keyingi xatti- harakatlar fuqarolar muhofazasi shtabi yo'riqnomalari asosida boradi». b) Xavfli kimyo zavodidagi avariyada: «Diqqat! Fuqarolar muhofazasi shtabidan gapiramiz, Fuqarolar! Chirchiq kimyo kombinatida odamga kuchli ta'sir etuvchi zaharIi modda (KTZM) - ammiakning to'kilishi oqibatida avariya sodir bo'ldi. Zaharlangan havo Toshkent shahri tomon tarqalmoqda. Kimyoviy zaharianish hududiga o'sha atrofdagi korxonalar va aholi yashash joylari (korxona, mahalla yashash joylari nomlari ko'rsatiladi) kiradi. Kimyo korxonasiga yaqin bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ishchi xizmatchilar, mahallalardagi yashovchilar o'z uyiarini, ish joylarini xavfsiz holatda qoIdirlgan holda (gaz, suv, elektrni o'chirishlari) va Toshkentga evakuatsiyaga tayyorlanishlari, kimyo korxonasidan uzoqdagi korxonalar, mahallalardagi (nomlari ko'rsatiladi) yashovchilar o'z ish joylarida, uylarida qo'shimcha germetikligini ta'minlab saqlanishiari lozim. eshitganlaringizni qo'ni-qo'shnilarga yetkazing!».) Yer silkinishi ehtimolida: «Diqqat! Fuqarolar muhofazasi shtabidan gapiramiz. Fuqarolar! Yer silkinishi ehtimoli bor! Gaz, suv, elektroenergiya, yonayotgan moddalarni o'chirib, uylarni xavfsiz holatda qoldirib, eshitgan ma'lumotlarni qo'shnilarga yetkazing, kerakli narsalarni: kiyim-kechak, hujjat, oziq-ovqat, suv olib baland qurilgan imoratlardan uzoqroq joylarda saqlaning!» Yer silkinganda inshootlarda bo'lsangiz, darhol eshik, oyna ustunlari tagiga turib oling. Tartib va osoyishtalik saqlansin. Fuqaro muhofazasi shtabi yo'riqnomalariga e'tiborni qarating!

1-Jadval

Aholini tabiiy favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari

№	Yo‘nalish	Amalga oshiriladigan choralar	Kutilayotgan natija
1	Aholini xabardor qilish	OAV, mobil ilovalar va SMS ogohlantirish tizimini rivojlantirish	Aholining tezkor ogoh bo‘lishi

ISSN 3030-3907

2	Ta’lim va treninglar	Maktab, kollej va tashkilotlarda muntazam o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish	Favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmasi
3	Texnik infratuzilma	Erta ogohlantirish tizimlari va monitoring uskunalarini o‘rnatish	Ofatlarni oldindan aniqlash imkoniyati
4	Hamkorlikni kuchaytirish	Mahalla, FVV va boshqa tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish	Tezkor va muvofiqlashtirilgan harakat
5	Evakuatsiya rejalarini ishlab chiqish	Hududlar kesimida aniq evakuatsiya yo‘nalishlarini belgilash	Talafotlarni kamaytirish
6	Aholining tayyorgarlik darajasini baholash	So‘rovnomalar, sinov mashqlari orqali monitoring	Tizimni doimiy takomillashtirish
7	Moddiy-texnik ta’minot	Zaxira oziq-ovqat, dori-darmon va texnika bilan ta’minlash	Favqulodda vaziyatlarda barqarorlik

Quyidagi jadvalda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularning oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar va chora-tadbirlar keltirilgan. Ushbu chora-tadbirlar aholining xavfsizligini ta’minlash, tezkor ogohlantirish tizimini rivojlantirish hamda favqulodda holatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Birinchi yo‘nalish aholini xabardor qilish bo‘lib, bunda ommaviy axborot vositalari, mobil ilovalar va SMS ogohlantirish tizimini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Bu orqali aholi favqulodda vaziyatlar haqida tezkor ma’lumot oladi va o‘z vaqtida ogoh bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi.

Ikkinchi yo‘nalish ta’lim va treninglar o‘tkazishdan iborat. Maktab, kollej va turli tashkilotlarda muntazam o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilishi natijasida fuqarolar favqulodda holatlarda qanday harakat qilish kerakligini o‘rganadilar.

Uchinchi yo‘nalishda texnik infratuzilmani rivojlantirish, ya’ni erta ogohlantirish tizimlari va monitoring uskunalarini o‘rnatish nazarda tutiladi. Bu esa ofatlarni oldindan aniqlash va ularning oldini olish imkoniyatini oshiradi.

To‘rtinchi yo‘nalish hamkorlikni kuchaytirish bo‘lib, mahalla, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa favqulodda holatlarda tezkor va muvofiqlashtirilgan harakatni ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907

Beshinchi yo‘nalishda evakuatsiya rejalarini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi. Hududlar kesimida aniq evakuatsiya yo‘nalishlarini belgilash orqali aholini xavfsiz joylarga tartibli ko‘chirish va talafotlarni kamaytirish mumkin bo‘ladi.

Oltinchi yo‘nalish aholi tayyorgarlik darajasini baholash bo‘lib, so‘rovnomalar va sinov mashqlari orqali amalga oshiriladi. Bu esa mavjud tizimni doimiy ravishda tahlil qilish va takomillashtirishga yordam beradi.

Yettinchi yo‘nalishda esa moddiy-texnik ta’minot muhim o‘rin tutadi. Zaxira oziq-ovqat, dori-darmon va zarur texnika vositalari bilan ta’minlash favqulodda vaziyatlarda barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilsa, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin bo‘ladi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyati aholisini tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb va zarur masalalardan biri hisoblanadi. Hududning tabiiy-geografik xususiyatlari, jumladan zilzila, sel, suv toshqinlari va ko‘chki kabi xavf-xatarlar mavjudligi aholini oldindan tayyorlashni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, aholining favqulodda vaziyatlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, erta ogohlantirish tizimlarini rivojlantirish hamda tegishli tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, amaliy o‘quv mashg‘ulotlari va targ‘ibot ishlarini muntazam tashkil etish orqali aholining xavf-xatarlarga nisbatan hushyorligi va tezkor harakat qilish qobiliyatini oshirish mumkin.

Natijada, ushbu yo‘nalishda kompleks yondashuvni amalga oshirish favqulodda vaziyatlar oqibatlarini kamaytirish, inson hayoti va sog‘lig‘ini asrash hamda hududning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Allayorov Y. “Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari”. – Toshkent: ILM ZIYO, 2007.
2. Nigmatov I. “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi”. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011.
3. Qudratov O., G‘aniyev T. “Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
4. O‘zbekiston Respublikasi qonuni “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”. – Toshkent.

ISSN 3030-3907

5. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida islohotlar”. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2023.
6. Mo‘Minjonov, N. N. (2024). Xavfsiz harakatni tashkil etishda mehnat muhofazasi fanini o‘qitishni o ‘rni. *Экономика и социум*, (6-1 (121)), 821-824.

ISSN 3030-3907